

YAPON TILIDA OG'ZAKI NUTQNI SHAKLLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN RAQAMLI TA'LIM VOSITALARI TASNIFI VA DIDAKTIK SALOHIYATI

Baqoyev Navro'zjon Abdullo o'g'li

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti

O'zbek va sharq tillari kafedrasi o'qituvchisi

ORCID iD: 0009-0005-3463-7784

bakaevnavruz@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada yapon tilini chet tili sifatida o'qitishda og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantirish muammolari va ularni hal etishda zamonaviy raqamli texnologiyalarning o'рни tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida yapon tili fonetikasi, xususan, ohang urg'usi (pitch accent) bilan bog'liq qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan mobil ilovalar, sun'iy intellekt (AI) asosidagi dasturlar va onlayn platformalar tahlil qilingan. Ushbu raqamli vositalarning funksional imkoniyatlariga ko'ra yangi tasnifi (fonetik vositalar, kommunikativ simulyatorlar, audiovizual platformalar, ijtimoiy tarmoqlar) ishlab chiqilgan. Shuningdek, maqolada har bir guruh vositalarining didaktik salohiyati, interaktivlik darajasi va talaba avtonomligini oshirishdagi samaradorligi ochib berilgan. Tahlil natijalari asosida yapon tili o'qituvchilari va mustaqil o'rganuvchilar uchun raqamli resurslardan foydalanish bo'yicha ilmiy asoslangan metodik tavsiyalar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: yapon tili, og'zaki nutq, raqamli ta'lim vositalari, CALL, MALL, sun'iy intellekt, pitch accent (ohang urg'usi), didaktik salohiyat, kommunikativ kompetensiya, mustaqil ta'lim.

CLASSIFICATION AND DIDACTIC COMPETENCE OF DIGITAL EDUCATIONAL TOOLS FOR THE FORMATION OF ORAL SPEECH IN JAPANESE

Abstract: This article explores the challenges of forming oral speech skills in teaching Japanese as a foreign language and the role of modern digital technologies in addressing them. The study analyzes mobile applications, Artificial Intelligence (AI)-based programs, and online platforms aimed at overcoming difficulties related to Japanese phonetics, particularly pitch accent. The author develops a new classification of these digital tools based on their functional capabilities (phonetic tools, communicative simulators, audiovisual platforms, social networks). Furthermore, the article reveals the didactic potential, level of interactivity, and effectiveness of each group of tools in enhancing learner autonomy. Based on the analysis results, scientifically grounded methodological recommendations for the use of digital resources are provided for Japanese language teachers and independent learners.

Keywords: Japanese language, oral speech, digital educational tools, CALL, MALL, Artificial Intelligence, pitch accent, didactic potential, communicative competence, autonomous learning.

КЛАССИФИКАЦИЯ И ДИДАКТИЧЕСКАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ ДЛЯ ФОРМИРОВАНИЯ УСТНОЙ РЕЧИ НА ЯПОНСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация: В данной статье исследуются проблемы формирования навыков устной речи при обучении японскому языку как иностранному и роль современных цифровых технологий в их решении. В ходе исследования проанализированы мобильные приложения, программы на основе искусственного интеллекта (ИИ) и онлайн-платформы, направленные на преодоление трудностей, связанных с фонетикой японского языка, в частности с музыкальным ударением (*pitch accent*). Автором разработана новая классификация данных цифровых средств по их функциональным возможностям (фонетические инструменты, коммуникативные симуляторы, аудиовизуальные платформы, социальные сети). Также в статье раскрыт дидактический потенциал, уровень интерактивности и эффективность каждой группы инструментов в повышении автономии обучающегося. На основе результатов анализа представлены научно обоснованные методические рекомендации по использованию цифровых ресурсов для преподавателей японского языка и лиц, изучающих язык самостоятельно.

Ключевые слова: японский язык, устная речь, цифровые образовательные инструменты, CALL, MALL, искусственный интеллект, *pitch accent* (музыкальное ударение), дидактический потенциал, коммуникативная компетенция, самостоятельное обучение.

KIRISH

XXI asrda globallashuv va Yaponiyaning iqtisodiy mavqei yapon tilini o'rganishga bo'lgan talabni oshirdi, biroq an'anaviy grammatik metodlar zamonaviy kommunikativ talablarga to'liq javob bera olmayapti. Yapon tilining o'ziga xos fonetik xususiyatlari, hurmat shakllari, gaplarning tuzulishidagi murakkablik bu tilni o'rganishda yangi innovatsion texnologiyalarni talab qila boshladi.

Mazkur muammoni hal etishda zamonaviy raqamli texnologiyalar (CALL va MALL) hamda sun'iy intellekt vositalari individual ta'lim yo'nalishini yaratish va talaffuzni real vaqtda korreksiya qilishda yangi didaktik imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – yapon tili og'zaki nutqini rivojlantirishga xizmat qiluvchi raqamli vositalarni ilmiy tasniflash va ularning didaktik salohiyatini tahlil qilish orqali samarali metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy lingvodidaktika va raqamli pedagogika kesishmasida olib borilayotgan tadqiqotlarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli vositalarning til o'qitishdagi o'rni masalasi M.Warschauer, S.Bax va G.Stockwell kabi g'arb

olimlari tomonidan konseptual jihatdan chuqur o'rganilgan bo'lib, ular CALL (Computer Assisted Language Learning) rivojlanishini uch bosqichga – bixevioristik, kommunikativ va integrativ bosqichlarga ajratadilar; bunda so'nggi, integrativ bosqichda texnologiya o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylanib, talabaning kognitiv faoliyatini rag'batlantiruvchi va ijtimoiy muloqotni kengaytiruvchi vosita sifatida talqin etiladi, biroq, mazkur nazariyalar asosan ingliz tili (ESL/EFL) o'qitish tajribasiga asoslanganligi sababli, yapon tili kabi murakkab yozuv va fonetik tizimga ega tillarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini to'liq qamrab ololmaydi. Yapon tilini chet tili sifatida o'qitish (JFL – Japanese as a Foreign Language) metodikasiga oid fundamental tadqiqotlarda, xususan, Hatasa, Chikamatsu va boshqa yaponshunos olimlarning ishlarida raqamli texnologiyalarning asosan yozuv ko'nikmasini (kanji o'zlashtirish) va o'qishni tushunishni rivojlantirishdagi o'rni keng yoritilgan bo'lsa-da, og'zaki nutq kompetensiyasini shakllantirishda raqamli vositalarning didaktik mexanizmlari nisbatan kam o'rganilgan soha bo'lib qolmoqda; ko'plab tadqiqotlar faqatgina "Shadowing" (ergashib qaytarish) texnikasini raqamli formatga o'tkazish samaradorligi bilan cheklanib qolmoqda va sun'iy intellekt (AI) bazasidagi nutqni aniqlash (Speech Recognition) hamda sintez qilish (Text-to-Speech) texnologiyalarining yapon tili prosodik xususiyatlarini (intonatsiya va urg'u) o'rgatishdagi aniqlik darajasi va metodik maqbulligi bo'yicha yaxlit ilmiy xulosalar yetarli emas.

Shu bilan birga, mahalliy va MDH davlatlari olimlarining ishlarida raqamli ta'lim muhitini loyihalashning pedagogik-psixologik jihatlari tadqiq etilgan bo'lsa-da, aynan yapon tili misolida og'zaki muloqotga yo'naltirilgan ilovalar va platformalarning (masalan, "HelloTalk", "Tandem" kabi ijtimoiy ta'lim tarmoqlari yoki "OJAD" kabi fonetik vizualizatsiya vositalarining) lingvodidaktik tasnifi ishlab chiqilmagan; mavjud ilmiy manbalarda raqamli vositalar ko'pincha texnik imkoniyatlari nuqtai nazaridan tavsiflanadi, ammo ularning til o'rganuvchida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdagi bosqichma-bosqich ta'siri, ya'ni retseptiv ko'nikmadan produktiv ko'nikmaga o'tish jarayonidagi didaktik o'rni ochib berilmagan. Yana bir muhim jihat shundaki, yapon tili o'rganuvchilarida kuzatiladigan "musiqiy urg'u" (pitch accent) bilan bog'liq muammolar an'anaviy

darsliklarda ko'pincha e'tibordan chetda qoladi yoki juda mavhum tushuntiriladi, vaholanki, zamonaviy raqamli vositalar ushbu fonetik hodisani vizual grafiklar orqali ko'rsatib berish va o'quvchining ovozi ona tili egasi (native speaker) ovozi bilan solishtirish imkonini beradi; afsuski, ushbu imkoniyatlardan foydalanish metodikasi hali-hanuz oliy ta'lim tizimining o'quv dasturlariga to'liq integratsiya qilinmagan. Demak, yapon tilida og'zaki nutqni shakllantirishga xizmat qiluvchi raqamli resurslarni nafaqat texnik, balki lingvodidaktik va psixolingvistik mezonlar asosida tizimlashtirish, ularning talaba avtonomligini oshirishdagi rolini aniqlash va shu asosda samarali metodik modelni yaratish bugungi yaponshunoslik va til o'qitish metodikasidagi dolzarb ilmiy bo'shliq hisoblanadi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot ishi yapon tilini o'qitish metodikasida mavjud bo'lgan nazariy yondashuvlar va amaliy raqamli yechimlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan kompleks yondashuvga asoslangan bo'lib, unda qiyosiy-tipologik tahlil, deskriptiv tasvirlash, pedagogik kuzatuv hamda kontent-tahlil metodlarining sintezi qo'llanilgan; tadqiqotning metodologik asosi sifatida raqamli didaktika tamoyillari va til o'zlashtirishning kognitiv nazariyalari olingan bo'lib, bu bizga turli texnologik yechimlarni shunchaki texnik vosita sifatida emas, balki o'quv jarayonining samaradorligini oshiruvchi pedagogik instrument sifatida baholash imkonini berdi. Tadqiqot jarayonida o'rganish obyekti sifatida tanlab olingan raqamli ilovalar va platformalar tasodifiy emas, balki qat'iy ilmiy va didaktik mezonlar – xususan, vositaning yapon tili fonetik va grammatik xususiyatlariga (pitch accent, mora, hurmat tili – keigo) moslashtirilganlik darajasi, sun'iy intellekt texnologiyalarining (NLP – Natural Language Processing) integratsiyalashuvi, foydalanuvchi interfeysining pedagogik ergonomikasi hamda global miqyosda til o'rganuvchilar va ekspertlar tomonidan berilgan reyting ko'rsatkichlarining yuqoriligi asosida saralab olindi; shu bilan birga, Andijon davlat chet tillar instituti va boshqa ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalarining yapon tili yo'nalishi talabalari orasida o'tkazilgan pilot so'rovnomalar va bevosita pedagogik kuzatuvlar natijalari tahlil qilinib, qaysi turdagi ilovalar talabalarning kommunikativ to'siqlarini yengishda va nutqiy reaksiyani tezlashtirishda eng yuqori koeffitsiyentga ega ekanligi aniqlandi, bu esa

tadqiqotning empirik validligini ta'minlashga xizmat qiladi. Tahlil jarayonida har bir raqamli vosita faqat uning texnik funksionalligi (masalan, ovozni yozib olish imkoniyati borligi) bo'yicha emas, balki lingvodidaktik nuqtai nazardan – ya'ni, u til o'rganishning qaysi bosqichida (retseptiv, reproduktiv yoki produktiv) va qaysi ko'nikmani (talaffuz, lug'at boyligi, dialogik nutq) rivojlantirishga xizmat qilishi bo'yicha chuqur o'rganildi va shu asosda ularning ilmiy tasnifi ishlab chiqildi.

RAQAMLI TA'LIM VOSITALARINING TASNIFI VA DIDAKTIK TAHLILI

Yapon tilida og'zaki nutq kompetensiyasini shakllantirish jarayoni ko'p qirrali murakkab mexanizm bo'lib, u nafaqat leksik va grammatik birliklarni to'g'ri qo'llashni, balki yapon tiliga xos bo'lgan suprasegmental fonetik hodisalar va sotsiolingvistik me'yorlarni ham qamrab oladi; shu bois, mavjud raqamli resurslarni ularning dominant didaktik funksiyasi va nutqiy faoliyat turiga ta'sir ko'rsatish xarakteriga ko'ra to'rt asosiy guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir. Birinchi va eng fundamental guruh – bu Talaffuz va intonatsiya ustida ishlovchi ixtisoslashgan fonetik vositalar (Phonetic Tools) bo'lib, ular yapon tilidagi o'zbek tilidan tubdan farq qiluvchi va ma'no farqlash xususiyatiga ega bo'lgan "musiqiy urg'u" (pitch accent) hodisasini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga yo'naltirilgan; bu guruhga mansub *OJAD* (Online Japanese Accent Dictionary) va Prosody Tutor Suzukikun kabi platformalarning didaktik salohiyati shundaki, ular talabaning nutqini vizualizatsiya qilish, ya'ni tovush to'lqini va ohang konturini grafik shaklda ko'rsatib berish orqali "eshitish va takrorlash" o'rtasidagi kognitiv uzilishni bartaraf etadi. Masalan, *Suzukikun* dasturi talaba kiritgan matnning intonatsion modelini avtomatik generatsiya qilib, qaysi bo'g'inda ovoz balandligi ko'tarilishi yoki tushishi kerakligini chizmalar orqali namoyon etadi; bu esa talabaga o'z talaffuzidagi xatolarni nafaqat eshitish, balki ko'rish orqali anglash va o'zini-o'zi tuzatish (self-correction) imkonini beradi, natijada talabada yapon tili ohangiga xos bo'lgan ritmik sezgi ongli ravishda shakllanadi va nutqning tabiiyligi ta'minlanadi.

Ikkinchi guruh – Kommunikativ simulyatorlar va sun'iy intellektga asoslangan chatbotlar bo'lib, ular asosan talabalardagi psixologik to'siqlarni, xususan, xato qilishdan qo'rqish hissini yo'qotish va spontan (tayyorgarliksiz) nutqni rivojlantirishga xizmat qiladi; bu toifadagi ChatGPT (Voice Mode), Duolingo va Talk

kabi ilovalar generativ sun'iy intellekt modellariga tayangan holda talaba bilan istalgan mavzuda real vaqt rejimida dialog olib borish imkoniyatiga ega. Ushbu vositalarning didaktik qiymati ularning yuqori darajadagi interaktivligi va adaptivligida namoyon bo'ladi: masalan, ChatGPT bilan muloqot jarayonida talaba o'z fikrini erkin bayon etishi mumkin va tizim uning grammatik yoki uslubiy xatolarini darhol, lekin "jazosiz izohlash" (non-judgmental feedback) tushuntirib beradi, bu esa o'quv jarayonidagi stress omilini minimallashtiradi. Bundan tashqari, ushbu simulyatorlar "rol o'ynash" (role-play) metodini raqamli formatda amalga oshirish uchun ideal muhit yaratadi; talaba sun'iy intellektdan do'kon sotuvchisi, mehmonxona ma'muri yoki suhbatdosh do'st rolini bajarishni so'rashi va turli ijtimoiy vaziyatlarga mos keladigan nutqiy modellarni (masalan, rasmiy uslub – desu/masu yoki norasmiy uslub) mashq qilishi mumkin, bu esa an'anaviy dars xonasida har doim ham imkoni bo'lmaydigan individual yondashuvni ta'minlaydi.

Uchinchi guruhga Autentik audiovizual kontent platformalari kiritilgan bo'lib, ular talabaning "sun'iy" darslik tilidan real hayotdagi jonli nutqqa o'tishini ta'minlovchi ko'priq vazifasini o'taydi; *YouTube (Japanesepod101)*, *Netflix (Language Learning with Netflix kengaytmasi)* va turli podkastlar (*Teppey sensei*) shunchaki passiv tinglash vositasi emas, balki faol "Shadowing" (ergashib qaytarish) mashqlarini bajarish uchun bebaho manbadir. Mazkur platformalarning didaktik salohiyati Stiven Krashenning "Input hypothesis" nazariyasiga to'liq mos keladi, ya'ni talaba tushunarli va qiziqarli kontent orqali tilni tabiiy ravishda o'zlashtiradi; xususan, *Language Learning with Netflix* kabi vositalar yordamida talabalar subtitrlarni yashirish yoki ko'rsatish, dialoglarni sekinlashtirish va har bir iborani alohida tinglab, ketma-ket takrorlash orqali yaponlarning real nutq tezligiga, so'zlashuvdagi qisqartmalarga va slanglarga moslashadilar. Bu guruhdagi vositalar talabaning retseptiv ko'nikmalarini (tinglab tushunish) produktiv ko'nikmaga (gapirish) aylantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi, chunki ular kontekstga bog'langan til birliklarini xotirada saqlash va ularni keyinchalik o'z nutqida qo'llash uchun boy lingvokulturologik fon yaratadi.

To'rtinchi guruh – Ijtimoiy muloqot tarmoqlari (Language Exchange Apps) bo'lib, ular *HelloTalk* va *Tandem* kabi ilovalar misolida til o'rganuvchini bevosita ona

tili egalari (native speakers) bilan bog'lash orqali kommunikativ kompetensiyaning eng yuqori bosqichi – pragmatik ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan; bu vositalar "o'quvchi" maqomidan "til foydalanuvchisi" maqomiga o'tish jarayonini tezlashtiradi. Didaktik nuqtai nazardan, ushbu ilovalar ijtimoiy konstruktivizm nazariyasiga asoslanadi, ya'ni bilim o'zaro ijtimoiy muloqot jarayonida hosil bo'ladi; talaba bu yerda nafaqat til o'rganadi, balki o'z madaniyatini ham boshqalarga o'rgatish orqali retsiprok (o'zaro) ta'lim jarayonida ishtirok etadi. Jonli suhbatdosh bilan muloqot qilish talabadan tezkor fikrlashni, vaziyatga moslashishni va madaniy nuanslarni hisobga olishni talab qiladi, bu esa darsliklarda o'rganilgan quruq qoidalarining hayotiy qo'llanilishini sinovdan o'tkazish maydoni hisoblanadi; shuningdek, ushbu ilovalardagi ovozli xabarlar va qo'ng'iroqlar funksiyasi masofadan turib ham immersiv til muhitini yaratish imkonini beradi, bu esa ayniqsa til muhitidan tashqarida (non-native environment) tahsil olayotgan talabalar uchun o'ta muhimdir.

TAHLIL VA MUHOKAMA: RAQAMLI VOSITALARNING DIDAKTIK SALOHIYATI

Tadqiqot davomida tasniflangan raqamli ta'lim vositalarining yapon tili o'qitish jarayonidagi samaradorligi shunchaki ularning texnik funksionalligi bilan emas, balki chuqur didaktik tamoyillar – interaktivlik, adaptivlik, avtonomlik va motivatsion qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining integratsiyasi bilan belgilanadi; xususan, zamonaviy **interaktivlik va adaptivlik** xususiyatlari an'anaviy "o'qituvchi-talaba" modelidan farqli o'laroq, ta'lim jarayonini individualizatsiya qilish imkonini beradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt (AI) algoritmlariga asoslangan dasturlar (masalan, *Duolingo* yoki *LingoDeer*) talabaning o'zlashtirish darajasini doimiy monitoring qilib, topshiriqlar murakkabligini avtomatik ravishda o'rganuvchining "yaqin taraqqiyot zonasi"ga (Zone of Proximal Development – Vigotskiy nazariyasi) moslashtiradi; bu esa kuchli talabalarning zerikib qolishini va o'zlashtirishi past talabalarning tushkunlikka tushishini oldini oladi. Yapon tili kabi murakkab iyeroglif va grammatik tuzilishga ega tilda bu adaptivlik juda muhimdir, chunki u talabaga o'z tempida harakat qilish imkonini beradi. Shuningdek, **avtonom ta'lim** ko'nikmasini rivojlantirish nuqtai nazaridan,

raqamli vositalar talabaga o'z ta'lim traektoriyasining subyekti bo'lish imkoniyatini taqdim etadi; talaba darsdan tashqari vaqtda, o'qituvchi nazoratisiz ham *Shadowing* mashqlarini bajarishi yoki *Chatbot*lar bilan muloqot qilishi orqali o'z ustida ishlash mas'uliyatini his qiladi, bu esa kognitiv psixologiyada "learner agency" (o'rganuvchi faolligi) deb ataluvchi muhim omilning shakllanishiga olib keladi.

Raqamli vositalarning yana bir hal qiluvchi didaktik ustunligi ularning **Feedback (Qayta aloqa) tizimi** va xatolarni tuzatish mexanizmlarida namoyon bo'ladi; an'anaviy auditoriyada o'qituvchi har bir talabaning talaffuzidagi kichik nuqsonlarni (masalan, cho'ziq unlilarning yetarlicha cho'zilmasligi yoki *tsu* va *su* tovushlarining almashib qolishi) har doim ham to'xtatib to'g'rilay olmaydi, chunki bu nutq oqimini buzishi va talabada psixologik to'siq yaratishi mumkin. Biroq, *Speech Recognition* (Nutqni aniqlash) texnologiyasiga asoslangan ilovalar talabaning ovozini millisekundlar ichida tahlil qilib, vizual yoki matnli ko'rinishda neytral, hissiy bo'yoqsiz qayta aloqani taqdim etadi; bu jarayon talabada "ijtimoiy xijolat" hissini yo'qotadi va xatoga ta'lim jarayonining tabiiy qismi sifatida qarash ko'nikmasini shakllantiradi, garchi hozirgi kunda ASR tizimlari yapon tilining kontekstual intonatsiyasini 100% aniqlikda baholay olmasa-da, ular fonetik mashqlar uchun eng samarali "simulyator" vazifasini o'taydi. Bundan tashqari, **motivatsiya** masalasi ham muhim o'rin tutadi: *gamification* (o'yinlashtirish) elementlari – ballar to'plash, reyting jadvallari va kundalik maqsadlarga erishish (streaks) tizimi dofamin ajralishini rag'batlantirib, til o'rganishdagi eng katta muammo bo'lgan "motivatsiyaning pasayishi" va mashg'ulotlarni tashlab qo'yish holatlarini kamaytirishga xizmat qiladi, bu esa yapon tili kabi uzoq muddatli qat'iyat talab qiladigan tilni o'rganishda barqarorlikni ta'minlaydi.

XULOSALAR VA TAVSIYALAR

Olib borilgan tahlillar va raqamli resurslarning tasnifi shuni ko'rsatadiki, XXI asr lingvodidaktikasida axborot texnologiyalari an'anaviy ta'lim metodlarini inkor etuvchi emas, balki ularni to'ldiruvchi, boyituvchi va yangi sifat bosqichiga olib chiquvchi **katalizator** vazifasini o'tamoqda; yapon tilida og'zaki nutq kompetensiyasini shakllantirishda hech qaysi yagona ilova yoki platforma "universal yechim" bo'la olmaydi, aksincha, har bir guruh vositalarining o'ziga xos o'rni va

vazifasi mavjud. Xususan, fonetik vositalar (Suzukikun) poydevor qo'yishda, kommunikativ simulyatorlar (AI Chatbotlar) qo'rquvni yengishda, audiovizual platformalar (YouTube, Netflix) real nutqni tushunishda va ijtimoiy tarmoqlar (HelloTalk) pragmatik muloqotni amalga oshirishda eng yuqori samaradorlikni ko'rsatdi; demak, muvaffaqiyatli pedagogik strategiya ushbu vositalarning tizimli integratsiyasiga asoslanishi lozim.

Ushbu xulosalarga tayangan holda quyidagi **pedagogik tavsiyalar** ishlab chiqildi:

O'qituvchilar uchun: Oliy ta'lim muassasalarida yapon tili darslarini "Blended Learning" (aralash ta'lim) yoki "Flipped Classroom" (to'ntarilgan sinf) modellari asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir; bunda grammatik tushuntirishlar va fonetik mashqlar raqamli platformalar orqali darsdan tashqari vaqtda mustaqil o'zlashtirilishi, auditoriya vaqti esa faqat jonli interaktiv muloqot, munozara va rol o'yinlarga ajratilishi lozim. O'qituvchi bu jarayonda "bilim beruvchi" emas, balki talabaning raqamli resurslardan foydalanishini muvofiqlashtiruvchi "fasiliteytor" (yo'naltiruvchi) rolini bajarishi kerak.

Talabalar uchun: Mustaqil ta'lim jarayonida raqamli vositalardan foydalanishning aniq algoritmini (Roadmap) ishlab chiqish tavsiya etiladi:

1-bosqich: *OJAD* va *Suzukikun* orqali so'z va gaplarning to'g'ri ohangini (pitch accent) vizual o'rganish;

2-bosqich: *Duolingo* yoki *AI Chatbotlar* yordamida elementar gapirish ko'nikmalarini mashq qilish;

3-bosqich: *Shadowing* texnikasi orqali podkast va videolar bilan ishlash;

4-bosqich: *HelloTalk* yoki *Tandem* orqali yaponiyaliklar bilan jonli muloqotga kirishish. Ushbu ketma-ketlik til o'rganish jarayonini tizimli va samarali tashkil etishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Stockwell, Glenn. *Mobile assisted language learning: Concepts, contexts and challenges*. Cambridge University Press, 2022.
2. Case, Rod. "Integrating Artificial Intelligence Technology into Language Teacher Education.", 27(1), 12–28.

3. **Toda, T.** (2021). *Shadowing: Let's Speak Japanese!* (Intermediate to Advanced Level). 3A Corporation. (Focuses on the shadowing technique methodology).
4. Nakamura I, Minematsu N, Suzuki M, Hirano H, Nakagawa C, Nakamura N, Tagawa Y, Hirose K, Hashimoto H. Development of a web framework for teaching and learning Japanese prosody: OJAD (online Japanese accent dictionary). In *Interspeech 2013* (pp. 2554-2558).
5. Benson, Phil. *Teaching and researching: Autonomy in language learning*. Routledge, 2013.
6. Krashen, Stephen. "The Conduit Hypothesis: How reading leads to academic language competence." *Language Magazine* 4 (2018): 127-141.
7. Saito, Kazuya, Konstantinos Macmillan, Magdalena Kachlicka, Takuya Kuniyara, and Nobuaki Minematsu. "Automated assessment of second language comprehensibility: Review, training, validation, and generalization studies." *Studies in second language acquisition* 45, no. 1 (2023): 234-263.